



TIL-MILLAT RUHI

Qanoatova Nazokat

University of Economics and pedagogy NOTM

Iqtisodiyot va pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Karimova Dilafro'z

University of Economics and

pedagogy NOTM talabasi

Mirzaraximova Maftunaxon

University of Economics and

pedagogy NOTM talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining asrlar davomida taraqqiy etishi, qadimda qanday nomlar bilan yuritilgani, bu tilda yaratigan asarlarning mashhur bo'lgani, buyuk allomalarimizning fikrlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Turkiy tillar, o'zbek tili, Alisher Navoiy, Davlat tili, aloqa vositasi, ona tili, millat ruhi, adabiy, badiiy.



O‘zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi. U temuriylar davriga kelib abadiy til darajasiga ko‘tarildi va davlat tili maqomiga ega bo‘ldi. O‘sha davrlarda o‘zbek tili turkiy til, chig‘atoy tili kabi nomlar bilan ham yuritilgan. Ayni paytda turkiy tillar guruhiga o‘zbek tili bilan bir qatorda turk, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, uyg‘ur, turkman, qozon tatari, qrim tatari, chuvash, yoqut, ozarbayjon, no‘g‘ay singari o‘ttizdan ortiq tillar mansub bo‘lib, qadimda ular turkiy tilda so‘zlashishgan. Ushbu tilda O‘rxun-Enasoy yodgorliklari, “Oltin yoruq”, “Qutadg‘u bilig”, (Yusuf Xos Hojib), “Hibbatul-haqoyiq” (Ahmad Yugnakiy) singari bir qator asarlar yozilgan. XI asrda yashab o‘tgan mashhur qomusiy olim Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillar tarixi va grammatikasi haqida mashhur “Devon-u lig‘otit-turk” asarini yaratgan. O‘zbek tilining rivoji va adabiy til bo‘lib shakllanishida buyuk mutaffakir-shoir, olim, qomusiy bilimlar sohibi Alisher Navoiyning xizmati beqiyosdir. U o‘zbek tilining dunyodagi boy tillardan biri ekanligini isbotlash maqsadida badiiy, tarixiy va ilmiy asarlar yaratdi. Alisher Navoiy davrigacha bu tilda Xorazmiy, Qutb, Ahmad Yassaviy, Sayfi Saroiy, Durbek, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy singari adiblar ijod qilgan bo‘lsa, bevosita uning tashabbusi bilan Xurosonda o‘zbek tili davlat tili sifatida ish yuritishga joriy etildi, natijada o‘zbek tilida ijod qiluvchilar soni osha boshladi. 1989- yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Bu – o‘zbek tiliga O‘zbekiston Respublikasining davlat tili huquqini berdi. 1995-yildan boshlab O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 21-oktabr davlat tili kuni sifatida keng bayram qilinishi belgilab qo‘yildi. Har bir davlat davlat sifatida shakllanar ekan, avvalo, o‘z tiliga ega bo‘lishi kerak. Til har bir xalq hayoti bilan bog‘liq holda taraqqiy qiladi, boyiydi, sayqallanadi, jamiyatda qadr topadi. Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytib o‘tganidek, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Darhaqiqat, bizning ruhimizga, jonimizga ilk mehrini



beruvchi onamizdan tilimizga bo'lgan muhabbatni ham o'rganamiz. Tilimizni faqat aloqa vositasi sifatida ko'rmaslik kerak. Aloqa vositasi sifatida ko'radiganlar esa xudbin insonlardir. Chunki aynan shu tilimizda bizning urf-odatlarimiz, ajdodlarimiz yodi, ularning o'y-fikrlari va asosiysi o'zbekning o'zligi aks etadi. Buyuk Navoiy bobomiz ham turkiy tilga o'zgacha mehr bilan qaragan. Bu tilda ko'p va xo'p ijod qilgan. "Tilimiz o'n sakkiz ming olamdan boyroq bo'lgan shunday bir xazinaki, har bir dur-u gavhari osmon yoritkichlaridan ham porloq, shunday bir gulzorki, har bir guli chaman lolalaridan go'zalroq", - bunday go'zal fikrlar muallifi, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Shu so'zlaridan ham ularning tilga bo'lgan muhabbatini sezishimiz mumkin. Bu muhabbat har birimizda bo'lishi kerak. Chunki tilimiz boshqa tillardan go'zal va boy, biz bu bilan g'ururlanishimiz kerak. Yana shuni ta'kidlash kerakki, tilimizgina bizning o'zligimizni anglatib turadi. Tilimizni boyligini ko'proq anglashimiz uchun ko'proq kitob mutolaasi bilan shug'ullanishimiz kerak. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarning kitob o'qishiga alohida e'tibor beryaptilar. Zero kelajak, bizning yoshlarimiz qo'lida. Bundan ko'rinadiki, tilimizning kelajagi ham yoshlarga bog'liq. Shoir Rasul Hamzatov aytganidek, ona tilimiz har birimizga jon bag'ishlovchi – masihdir. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zlari bilan aytganda, "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oynai hayoti til va adabiyotdur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur". Istiqlool yillarida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi. O'tgan davr mobaynida o'zbek tilining qo'llanish doirasini g'oyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani fikrimizning isbotidir. Yana shuni aytib o'tish joizki, hozirgi kunda ko'plab shevalarda va boshqa tilni aralashtirib gapirish urfga kirgan. Bu go'yoki zamonaviylikni bildiradi. Lekin



bunda o‘zbeklik qani? To‘g‘ri zamon bilan hamnafas yashash kerak, ammo bu degani tilimizni buzish kerak degani emas. Zamonaviy ko‘ngilochar ko‘rsatuvlarda va ba’zi san’atkorlarimiz tilida aynan shunday unsurlar uchrashi afsuslanarli holat. Axir ulardan yosh avlodlar o‘rnak olishadi. Hozirgi ba’zi qo‘shirnoq ichidagi jurnalistlarimiz “adabiy” va “badiiy” so‘zlarini ma’nosini yaxshi tushinishmaydi. Ular biz badiiy tilda gapirishimiz kerak deyishadi. Lekin, aksincha, badiiy tilda emas, adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda gapirishlari kerak. Axir tilimizda millat ruhi aks etadi. Shunday ekan tilimizni asrab-avaylash muqaddas burchimiz.

Til – har bir xalqning eng bebaho boyligi, uning tarixi, madaniyati va milliy ruhi aks etgan ulug‘ ne’matdir. Har bir millatning o‘ziga xosligi, dunyoqarashi va ma’naviyati avvalo uning tilida mujassam bo‘ladi. Shu bois ham, “Til – millat ruhi” degan ibora chuqur ma’noga ega.

Millatning shakllanishi va yashovchanligi til bilan chambarchas bog‘liq. Tarixga nazar solsak, o‘z ona tilini asrab-avaylagan, uni avloddan-avlodga yetkazgan xalqlar har doim o‘zligini saqlab qolgan. Aksincha, tilidan ayrilgan xalq asta-sekin o‘zligini yo‘qotadi, begonalashadi, tarix sahnasidan tushib qoladi. Bu haqiqatni olimlar ham, adiblar ham o‘z asarlarida ta’kidlab kelishgan.

O‘zbek tili – xalqimizning faxri, boy tarixiy merosidir. Alisher Navoiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi buyuk shoir va yozuvchilarimiz o‘z asarlari bilan tilimizning imkoniyatlarini ko‘rsatib berganlar. Bugun biz ularning merosiga munosib bo‘lib, ona tilimizni hurmat qilishimiz, to‘g‘ri yozish va so‘zlashga odatlanishimiz zarur.

Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixi, urf-odati, qadriyatlarini o‘zida saqlagan xazinadir. Shu sababli maktabdan boshlab farzandlarga tilga hurmat, uni asrab-avaylash tuyg‘usini singdirish muhim vazifalardan biridir.



Xulosa

Til – bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki millatning qalbi, g‘ururi, sha’ni va ruhi hisoblanadi. Tilga hurmat – bu ajdodlarga, tarixga, milliy qadriyatlarga hurmatdir. Tilini sevgan, asragan, uni rivojlantirgan xalq hech qachon yo‘qolmaydi, aksincha, rivojlanadi, taraqqiy etadi. Bugun har birimizning muqaddas burchimiz – ona tilimizni ardoqlash, to‘g‘ri yozish, to‘g‘ri so‘zlash, uni boshqa tillar bilan teng ravishda rivojlantirishdir.

Milliy o‘zlikni anglash – bu avvalo tilga bo‘lgan munosabatdan boshlanadi. Shu bois, maktabdan boshlab har bir farzandga ona tilining qadr-qimmati, tarixiy ahamiyati haqida tushuntirish, uni qadrlashga o‘rgatish kerak. Zero, tilini sevgan millatgina o‘zligini yo‘qotmaydi, kelajakda ham munosib o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.
2. Oripov, Abdulla. Tilga e’tibor – elga e’tibor – Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi nashri, 2000.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
4. “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonun. – 1989-yil 21-oktabr.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Internet manbalari: www.lex.uz, www.ziyonet.uz, www.uzedu.uz – 2024-yil ma’lumotlari asosida.
7. Til va adabiyot jurnali.
8. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. Toshkent-2016.